


Yondosh mavzu:
sirk.

Parallelepiped,
kub, kuboid.



1. Faqat hajmli shakllar nomini ayting.




2. To'g'ri burchakli parallelepiped va kubning qanday umumiy jihati bor?


Ular bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?

Agar kubning bir tomonini siyohga botirib, qog'ozga o'sha tomonining izi tushirilsa, qanday shakl hosil bo'ladi?

Agar to'g'ri burchakli parallelepiped tomonlarining izlari tushirilsa-chi?




To'g'ri burchakli
parallelepiped



Kub

84. Parallelepiped va kub




Kub

Uchlari

Qirralari

Yoqlari



To'g'ri burchakli parrallelepiped



3. Tadqiqot loyihasi: kuboid va kubning xususiyatlarini o'rganish.

a) Ularning yoqlari, qirralari va uchlarini sanang. Jadvalni daftaringizda to'ldiring.

	To'g'ri burchakli parrallelepiped	Kub
Yoqlari		
Qirralari		
Uchlari		

b) To'g'ri burchakli parrallelepipedning qarama-qarshi yoqlarini solishtiring. Bu yoqlar haqida nima deyish mumkin?

d) Kubning barcha yoqlarini solishtiring. Ular haqida nima deyish mumkin?

e) Kuboid qirralarining uzunliklarini solishtiring. Uning nechta bir xil qirralari bor? Nechta turli qirralar mavjud?

f) Kubning nechta bir xil qirralari bor?

g) Xulosa chiqaring: kubni to'g'ri burchakli parrallelepipedning turlaridan biri deyish mumkinmi?




4. Bu shakl qanday ataladi? Daftaringizga yozing:

a) bu shaklning barcha uchlarini;

b) bir-biriga teng bo'lgan barcha qirralarini;

d) bir-biriga teng bo'lgan barcha yoqlarini.





5. Sirk o'yinlari uchun kub shaklidagi simli karkas yasaldi. Bu kub qirralarining uzunligi 130 cm bo'lsa, uni yasashga qancha sim ketgan?



6. Misollarni yeching. Ingichka yog'och yoki sim ustida yura oladigan sirk artisti qanday ataladi?

B $45 \cdot 5 + 6\,599$

N $2\,478 - 3\,000 : 5 \cdot 4$

V $6\,000 - 340 : 17$

R $6\,200 + 812 : 4 \cdot 3$

I $72\,000 : (63\,000 : 70)$

S $8\,400 : (7 \cdot 4) \cdot 2$

K $10\,087 - 50\,000 : 25$

T $2\,500 : (5 \cdot 4 \cdot 5)$

L $(180 + 330) - 14 \cdot 20$

E $240 + (18 \cdot 3) \cdot 5$

510	8 087	5 980	80	230	80	6 824	6 809	80	600	25
-----	-------	-------	----	-----	----	-------	-------	----	-----	----



7. Sirkdagi tomoshabinlar uchun qo'yilgan o'rindiqlar sektorlarga bo'lingan. Arena atrofida jami 8 ta sektor bor. Uchta sektorda 75 tadan, yana ikkitasida esa 63 tadan tomoshabin o'tiribdi. Agar tomoshaga jami 573 ta chipta sotilgan bo'lsa, qolgan uchta sektorda nechta tomoshabin o'tiribdi?



8. Masxarabozlar uch xil rangli – yashil, qizil va ko'k tasmlarni bitta qilib bog'lashdi. Uning uzunligi 21 m chiqdi. Keyin bir masxaraboz bu tasmadan yashil tasmaning o'rtasidan ko'k tasmaning o'rtasigacha bo'lgan qismini kesib oldi. Uning uzunligi 12 m chiqdi. Qizil tasmaning uzunligi qancha bo'lgan?



9. Amallar tartibiga rioya qilgan holda hisoblang.
 $81\,000 : 27 + 37 \cdot (456 - 398) - 216 : 6$



10. Qirrasining uzunligi 8 cm bo'lgan 25 ta bir xil kubdan minora yasaldi. Bu minora qanday balandlikka ega bo'ladi?